AMIR TEMUR VA UNING SALTANATIDA DAVLAT BOSHQARUVI

Abdukarimova Zuhro Fayzullo qizi
Xalqaro Nordik universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur va Temuriylar davlat boshqaruvi, siyosiy hayot va temur tuzuklarida davlat boshqaruv siyosati haqida so'z yuritiladi. Amir Temur davridagi va hozirgi kundagi davlat boshqaruvi va uning asosiy xususiyatlariga ilmiy-nazariy yondashilgan. Bu maqolada Amir Temur davridagi davlat qurilishi hamda boshqaruvi va davlat boshqaruvida vazirlarning o'rni hamda ba'zi vazirlar hayoti haqida so'z yuritilgan.

Kalit so`zlar: Amir Temur, Temuriylar, davlat boshqaruvi, siyosat, temur tuzuklari, vazir, devonxona, siyosiy hayot.

Kirish


Amir Temur davlatni idora qilishda adlu-adolat, qonun ustuvorligiga asoslanib ish ko'rishga, fuqaro manfaatlarini ko'zlab siyosat yurg'izishga alohida e'tibor berdi. Mamlakat hayotiga dahldor har bir kichik masalada ham o'ziga yaqin tutgan xos kishilar, din-u ilm ahllari hamda vazirlari bilan maslahatlashib, kengashib faoliyat yuritdi. Bu kengashlarda vazirlarning fikr-mulohazalari juda ahamiyatli hisoblangan. Mu'iniddin Natanziy "Muntaxab ut-tavorix" asarida Amir Temurning kuchli markazlashgan davlat barpo etish borasidagi fazilatlarini sharhlab: " Devon ishlari tartibi va sultonlik qilish tarzlari haqida shunday bir qoidani joriy etdiki, u to olam inqirozigacha aqli komil vazirlari uchun dastur va tajribali hokimlar uchun yorliq bo'la oladi. Uning davlati va iqbol yulduzi shu darajada ediki, bir otliq bilan bir diyorni olar bir so'z bilan viloyatlarni zabt etar, tahdid qilishi bilanoq tish-tirnog'igacha qurollangan lashkarni tor-mor keltirar, bir o'q bilan son sanoqsiz qo'shinni joyidan qo'zg'atardi", - deb yuksak baho bergan edi.[1]

Tahlil va natijalar muhokamasi

Amir Temur saltanatni boshqarishda asosan 12 ta tuzukga tayanganligini ham quyidagicha bayon etadi: "Tuzuklar jumlasidan o'z davlatim va saltanatimga bog'lagan biribchi tuzugim , Tangri taoloning dini va Muhammad Mustafoning shariatiga dunyoda rivoj berdim. Har yerda va har vaqt islom dinini qo'llab quvvatladim."[2]
Ikkinchi tuzugi – mamlakatni boshqarishda 12 ta tabaqa toifadagilarga tayanganligi.

Uchinchi tuzukni shunday tavsiflaydi: "Maslahat, kengash, tadbirkorlik, faollik va xushyorlik, ehtiyotkorlik bilan g'anim qo'shinlarni yengib, mamlakatlarni o'zimga bo'ysundirdim. Saltanatim ishlarini murosayu madora, muruvvat, sabr – toqat va bilmaslikka soldim, do'stu dushman bilan murosayu madora qildim."

[1] Muiniddin Natanziy. Muntaxab ut-tavorixi Mu'iniy. –B. 101-102.
[2] Temur Tuzuklari. Toshkent: O'zbekiston, 2011, 74-b



To'rtinchi tuzugi – davlat ishlarini to'ra va tuzukka asoslangan holda boshqarganligi. Bu haqda manbada shunday deyilga: "To'ra va tuzukka tayanib, saltanatda o'z martaba va maqomimni saqlab turdim. Amirlar, vazirlar, sipoh, raviyat, har biri o'zlavozim va martabasidan mamnun holda xizmatimda bo'lib, undan ortig'iga da'vogarlik qila olmadi."[3]

Beshinchi tuzugi – amirlar va askarlarni martabayu unvonlar, oltin kumush bilan xushnud etganligi, bazmlarda ularga munosib o'rin berganligi, shuning uchun ular janglarda jonini fido etganlari, dirham va dinorlarni ulardan ayamaganligi, ularning yumushlarini yengillashtirish uchun mehnat-u mashaqqatlarini o'z zimmasiga olganligi va ularni tarbiya qilganligi haqida. Ushbu tuzugida Amir Tshbu tuzugida Amir Temur amirlar, sipohsorlar, bahodirlar bilan ittifoq bo'lib, ularning mardligu mardonavorligiga tayanib, shamshir zarbi bilan yigirma yetti podshohning taxtini egallaganini ta'kidlaydi.

Oltinchi tuzugi – adolat va insof bilan xalqni o'zidan rozi qilganligi, gunohkorga ham begunohga ham rahm-shafqat bilan haqqoniyat yuzasidan hukm chiqarganligi, xayr-ehson ishlari bilan odamlarning ko'nglidan joy olganligi haqida. Huddi shu to'g'risida asarda: "Kimki huzurimga kiritilsa va ko'zim unga tushsa, sovg'a-salomlar bilan kuzatsinlar. Har qanday odam mening adolat devonimdan panoh topgan ekan, gunohi bo'lsa ham uni kechirsinlar. Ikkinchi, uchinchi marta yana gunoh yo'liga kirsa, u holda gunohiga yarasha jazolasinlar."[4] – deyiladi.

Yettinchi tuzugi – mazkur tuzugida sohibqiron darvesh, faqir va miskinlarni o'ziga yaqin tutganligi , ularning ko'nglini og'ritmaganligi, biror bir talabini rad etmaganligi, g'iybatchi odamlarni majlisga kiritmaganligi, biror kishiga nisbatan tuhmatu g'iybat qilsalar, quloq solmaganligini ta'kidlaydi.

Sakkizinchi tuzugi – ushbu tuzukda Amir Temur shu vaqtgacha o'tgan davlat boshliqlarining qonunlarini, turish – turmushlarini donolardan so'rab surushtirganligini, ularning yo'l-yo'riqlari, aytgan gaplarini xotirasida saqlaganligi yaxshi sifatlarini o'zlashtirganligini hamda ularga amal qilganligini bayon qilgan. To'qqizinchi tuzugi – bu tuzukda u raiyat ahlidan ogoh bo'lganligi, kichiklarni o'z farzandidek ko'rganligi haqida aytilgan.[5]

[3] Temur Tuzuklari. Toshkent: O'zbekiston, 2011, 74-b
[4] Temur Tuzuklari. Toshkent: O'zbekiston, 2011, 92-b
[5] Temur Tuzuklari. Toshkent: O'zbekiston, 2011, 77-b.

O’ninchi tuzugi – turku tojik, arabu ajamning turli toifa va qabilalaridan bo’lgan va Amir Temurga nisbatan xayrixohlik qilgan kishilarning ulug’lariga hurmat ko’rsatganligi, yaxshilarga – yaxshilik qilgani, yomonlarni esa o’z yomonliklariga topshirganliga to’g’risida.


O’n birinchi tuzugida shunday deyiladi: “Farzandlar, qarindoshlar, yoru birodarlar, qo’shnilar va men bilan bir paytlar do’stlik qilgan barcha odamlarni davlatu ne’mat martabasiga erishganda unutmadim. O’z farzandlarim, qavmu qarindoshlardan qarindoshlik mehrini uzmadim. Har kimni turli yo’llar bilan sinab bilib oldim va ularga shunga yarasha muomala qildim. Shuning uchun do’stu dushman bilan kelishib yashadim.”[6]

O’n ikkinchi tuzugi – bu tuzukda Amir Temur do’stu dushmanligiga qaramay, har joyda sipohlarni hurmat qilganligi, chunki ular boqiy mato bo’lgan jonlarini foniy dunyo moli uchun sotishini ta’kidlab o’tgan.

Amir Temur “ Temur Tuzuklari”da davlatni idora qilishda podshoh bir qancha me’yor va tartiblarga rioya qilishni zarur deb hisoblaydi. Amir Temur o’z “Tuzuklari”da markazlashgan davlat tuzish, millatni birlashtirish, xalq farovonligini ta’minlash uchun bu tamoyillarni nafaqat ishlab chiqqan, balki bevosita o’zi ularga amal qilib faoliyat olib borgan. Shuningdek, Amir Temur siyosiy hokimiyatni boshqarishda vazirlar, noiblar va amirlarning roliga alohida e’tibor qilgan. [7]



[6] Temur Tuzuklari. Toshkent: O’zbekiston, 2011, 43-44b.



1.1-rasm."Temur tuzuklari"da davlat asosini tashkil etuvchi 12 ta toifa.

"Tuzuklar"dan yana shuni anglash mumkinki, mansablarni taqsimlashda faqat o'ziga yaqin qarindoshlar bilan cheklanib qolmagan. Bu sohibqironning mazkur masalaga davlat va jamiyat nuqtai nazaridan yondoshganligini bildiradi. Bulardan tashqari, Amir Temur chegara yerlar va tobe mamlakatlaga tegishli ishlarga mas'ul qilib yana uchta vazir. Mamlakatda jami yettita vazir bo'lib, ular devonbegiga bo'ysungan. Davlatni boshqarishda sohibqiron: "Yana amr qildimki, saltanat ishlari, mamlakatni idora etish, undagi o'zgarishlar, almashishlar, sipohiylar va amirlarning tayinlanishi turli kengash-tadbirlarni xos majlisda menga arz etsinlar va maxsus kotib hozir bo'lib, rostlik qalami bilan maxfiy-yashirin kengashlarni va gaplarni yozib borsin." – deydi. Amir Temur vazir tanlashda juda ehtiyotkor bo'lgan. Vazirlar o'ziga yuklatilgan vazifani sidqidildan bajarishi, mas'uliyatni his qilishi masalasi doimo Amir Temurning diqqat markazida bo'lgan. "Temur tuzuklari"da vazir tutish borasida shunday ma'lumot keltirilgan: " Amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega kishilardan bo'lishlari lozim:

-Birinchidan asllik, toza nasllik.

- Ikkinchidan aql, farosatlilik.

-Uchinchidan sipohi, raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmomilalik.

-To'rtinchidan sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik" [8]

Amir Temur o'rnatgan tartib-qoidaga muvofiq shu to'rt sifatga ega bo'lgan kishigina vazirlik martabasiga loyiq ko'rilgan. Vazirlarga mamlakat ishlari, fuqaro va harbiylar ixtiyori topshirilgan. Temur bunday vazirga to'rt imtiyoz: ishonch, e'tibor, ixtiyor va qudrat berilishi lozim deb hisoblagan. Uning nazdida, davlat ishlarini tartibga keltirib, mol-mulk va moliyaviy ishlarni to'g'rilik bilan, asillik va toza nasllik sifatlarini namoyon etgan vazir komillik darajasiga yetgan vazir hisoblangan. Ruxsat etuvchi hamda ta'qiqlovchi buyruqlarida uning aslligi va toza naslligi ko'rinib turadi. Dushmanlik va jabr-zulm qilmaydi. Xoh harbiy soha vakillari, xoh aholidan bo'lsin, har kimning nomini yaxshi so'zlar bilan tilga oladi. Amir Temur somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, anushteginiylar davrlaridagi ijroiya hokimiyatining boshqaruv tizimini o'z davriga moslab, yangi asoslarda qaytadan yo'lga qo'ydi.[9] Beatris Mans o'z tadqiqotlarida Amir Temur devoni Devoni a'lo va Devoni buzurgdan tashkil topganligi, bu ikki devon parallel ravishda Amir Temur markaziy boshqaruvida mavjud bo'lganligi, Devoni a'lo fuqarolik ishlari bo'yicha forsiy an'analar bilan boshqarilganini qayd etadi. Shuningdek, Devoni buzurg oliy

[8] R.G.Klavixo. Samaqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar). 112-113b.

[9] Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. –Toshkent, 2012. –B.282-284.

tabaqa zodagonlar hisoblanmish chig'atoy amirlari va shoh xonadoni a'zolari masalalari bilan shug'ullanadigan oliy tribuna sud ekanligini aytib o'tgan.[10]

Xulosa

Amir Temur va Temuriylar davrida yurtimizda o'ziga xos davlat boshqaruvi tashkil topdi, o'lkamizda fan va madaniyat barq urib o'sdi, rivojlandi va kamol topdi. Fan va madaniyatning qaysi bir sohasini ko'zdan kechirmaylik, diyorimiz XIV-XV asrlarda jahon sivilizasiyasining oldingi saflaridan joy olganligining guvohi bo'lamiz. Sohibqiron Amir Temurning hayoti va faoliyatini, u qoldirgan boy ma`naviy meros va qadriyatni o'z davridan ajratgan holda o'rganib bo'lmaydi. Shuning uchun ham muallif, birinchi navbatda, o'sha davrning tarixiy muhiti, Amir Temurning xalq ozodlik harakatiga yetakchilik qilishidan boshlab, to Turon taxtini egallashi yo'lida olib borgan kurashlari, mamlakatni obod etishga doir azmu- shijoatlari, davlatni boshqarish borasida joriy etgan qonun-qoidalari, fuqaro va raiyatga, mag'lub etilgan o'zga yurt hukmdorlari va ularning aholisiga bo'lgan adolatli munosabatlari, aybini tan olib kelganlarga nisbatan kechirimlilik kabi buyuk fazilatlarini o'z davrida bu haqda yozilgan nodir asarlar asosida ko'rsatib beradi. Vatan va xalq oldidagi burchni nihoyatda teran anglab ish tutgan Amir Temur dahosi beqiyos. Uning amri bilan bunyod etilgan yo'l va ko'priklar, qasrlar, bog'lar, muhtasham me`moriy obidalar, ko'rkam masjidlarning xalq ma`naviyatini yuksaltirishdagi ahamiyati ham benihoyadir. Shu ma`noda ulug' bobokalonimiz tarixining barcha jihatlarini to'kis o'rganish va uning vasiyatlariga amal qilishda hikmat ko'p. Zotan, Amir Temur bobomiz tarixi, Vatanimizning olti asrlik muhtasham tarixi tiklanishi hamdir. Xulosa qilib aytganda, «Temur tuzuklari»da Amir Temurga xos bo'lgan muhim fazilatlar, davlatni idora qilish usuli bilan yaqindan tanishish mumkin, desak xato bo'lmaydi. Jumladan, unda *«Menga yomonliklar qilib, boshim uzra shamshir ko'tarib, ishimga ko'p ziyon yetkazganlarni ham iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, hurmatlab yomon qilmishlarini xotiramdan o'chirdim»,* — deganligining o'zi fikrimizning yorqin isbotidir. Ushbu asarda, bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Qisqa qilib aytganda, Amir Temur sharqona demokratiyaga, qonunga, urf-odatlarga asoslangan buyuk davlat barpo qilib, tarixda o'chmas iz qoldirdi.

Foydalangan adabiyotlar ro`yhati:

1. Temur Tuzuklari. Toshkent: O'zbekiston, 2011, 74-102.
2. R.G.Klavixo. Samaqanga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar). 112-113b.
3. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. –Toshkent, 2012. –B.282-284.
4. Manz B.F. The Rise and Rule of Tamerlane. –Cambridge University Press, 1989. –P. 167-175.
5. Muiniddin Natanziy. Muntaxab ut-tavorixi Mu'iniy. –B. 101-102.
6. Abdulahad Muhammadjonov. "Temur va Temuriylar saltanati"-18-19 bet.
7. I.A.Karimov , Amir temur haqida so'z. Toshkent O;zbekiston 34-bet.
8. T.Fayziyev- "Temuriy malikalar".
9. Атаманчук Г.В. Обеспечение рациональности государственного управления. 1990. 33-49С
10. Fayziyev T. Temuriylar shajarasi. 54-85.

[10] Manz B.F. The Rise and Rule of Tamerlane. –Cambridge University Press, 1989. –P. 167-175.